

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA
MADANIYAT INSTITUTI**

IBROHIMOV OQILXON AKBAROVICH

MAQOM ASOSLARI

Oliy ta‘lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma

TOSHKENT
«TURON-IQBOL»
2018

UDK 78(075)
KBK 85.314(50‘)
I 14

Ibrohimov O.

Maqom asoslari. O‘quv qo‘llanma. / O. Ibrohimov: O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Davlat san‘at va madaniyat instituti. Toshkent: «TURON-IQBOL», 2018. – 160 b.

Mas‘ul muharrir:

Xudoyev G‘.M. – O‘zDSMI «Musiqiy-nazariy fanlar» kafedrasini mudiri, falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

Yunusov R. Yu. – O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi,
O‘zDK «O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi»
kafedrasini professori

Ayxodjayeva Sh. I. – O‘zDK «O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi»
kafedrasini dotsenti, san‘atshunoslik fanlari
nomzodi

Oliy maxsus ta‘lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan ushbu «Maqom asoslari» o‘quv qo‘llanmasida mumtoz maqomlar tarixi, nazariyasi va ijrochiligi bilan bog‘liq ayrim masalalar, shuningdek, bizning davrgacha yetib kelgan Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llari muxtasar yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2017-yil 24-avgustdagi 603-sonli buyrug‘iga asosan Oqilxon Ibrohimovning 5151600–Xalq ijodiyoti (turlari bo‘yicha), 5111000–Kasb ta‘limi (5151600–Xalq ijodiyoti (turlari bo‘yicha)), 5150300–Aktyorlik san‘ati (musiqali teatr aktyorligi) yo‘nalishlari talabalari uchun tavsiya etilgan «Maqom asoslari» nomli o‘quv qo‘llanmasini nashr etishga ruxsat berilgan.

KIRISH

O‘zbek xalqining ma’naviy go‘zalligi asrlar qa’ridan kelayotgan kuy-ohanglarida o‘zining ajoyib va betakror badiiy in’ikosini topgan. Ulug‘ ajdodlarimiz bergan ta’rifga ko‘ra, musiqa – inson ruhining ozuqasidir. Binobarin, ko‘p asrlar davomida xaliqimiz boy ma’naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruhiyatining sadolardagi jonli ifodasi bo‘lgan milliy musiqa bugungi kunda buyuk davlat bunyodkori bo‘lmish jamiyatimizning ruh quvvati va jon ozig‘i bo‘lmog‘i ayni muddaodir.

Zero, yaqin o‘tmish – sho‘rolar tuzumi davrida olib borilgan musiqiy ta’lim-tarbiya sohasidagi mafkuraviy «rahnamolik» natijasida, xalqimizning asrlar davomida qalbiga jo bo‘lib kelgan kuy-ohang boyliklaridan bebahra, umrboqiy azaliy qadriyatlaridan begonalashgan, binobarin, milliy o‘zligini unutayozgan yosh avlod vakillari ham voyaga yetdi. Pirovardida milliy madaniyatimiz uchun yot, salbiy holatlar yuzaga chiqqa boshlagan edi.

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, ko‘p sohalar qatori musiqa madaniyati jabhalarida ham hayotbaxsh o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda jonajon Vatanimizda asriy maqom san‘atiga bo‘lgan e’tibor benihoya ortganligi quvonarlidir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017-yilning 17-noyabr kuni e’lon qilgan «O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasi o‘laroq tarixan qisqa davr mobaynida ko‘p asrlik xalqchil va mumtoz musiqa an‘analarni o‘rganish, o‘zlashtirish va targ‘ib etishga qaratilgan qator e’tiborli ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, milliy musiqiy meros asosida ishlab chiqilgan «Maqom asoslari» o‘quv fani maxsus ta’lim tizimiga joriy etildi. Ayni vaqtda, mazkur fan bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarga ham katta ehtiyoj paydo bo‘ldi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada milliy an‘naviy kasbiy musiqa-ning asosiy salmog‘ini tashkil etgan maqomlar xususida so‘z yuri-

tiladi. Qo‘llanma yozilishida Abdurauf Fitrat, Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda, Viktor Uspenskiy, Viktor Belyayev, Yunus Rajabiy, Matniyoz Yusupov, Ilyos Akbarov, Is‘hoq Rajabov, Fayzulla Karomatli (Karomatov), Tamara Vizgo, Karima Olimboyeva-Ahmedova, Abdumannon Nazarov va boshqa taniqli san‘atkor va olimlarning milliy musiqani to‘plash, nota yozuvlariga olish hamda tadqiq etishga oid ilmiy-ijodiy mehnatlari muhim manbalardan bo‘ldi¹. Shu bilan birga, muallifning professor F.Karomatli rahbarligida Toshkent, Farg‘ona, Buxoro va Xorazm hududlariga uyushtirilgan musiqiy-folklor ekspeditsiyalari jarayonida to‘plagan ma‘lumotlari va bevosita «jonli» ijrolardan olgan tinglov taassurotlari ham ahamiyatli bo‘ldi.

¹ Tavsiya etilgan adabiyot va nota nashrlari ro‘yxatiga qarang.

Mavzu: MAQOMLAR TARIXIDAN MAQOM NIMA?

Arabcha maqom (مقام – o‘rin, joy, tovush, parda, daraja va hokazo, ko‘plik shakli maqomot – مقامات) atamasi o‘tmishda turli ma’noda ishlatilib kelingan. «Musiq a istilohida esa maqom – musiq a cholg‘ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o‘rni, ya’ni pardalardir... Maqom – ma’lum lad² asosiga mos keladigan va muayyan pardadan boshlanadigan kuy va ashular majmuasidir. Hozirgi kunga qadar maqom kuy va ashula yo‘llari turkumi ma’nosini ifodalab keldi»³. Kasbiy musiqaning yuksak namunalari bo‘lgan maqomlar aksariyat musulmon Sharq xalqlari mumtoz musiq a merosining salmoqli qismini tashkil etadi.

Maqom san’ati o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega. Bu tarixni o‘zaro farqli ikki yirik davrga ajratish mumkin. Birinchi davr mazmunini maqomlarning makon-zamon nuqtayi nazaridan juda qadimiy kelib chiqish ildizlari, dastlabki kuy-ohang qatlamlarini o‘rganish masalalari tashkil etadi. Tabiiyki, bu davrda, hozirda ma’lum tom ma’nodagi maqomlar bo‘lmagan, albatta. Chunki, maqom tizimlarining shakllanish jarayonlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ma’lum bosqichi bilan shartlangan. Zotan, tayanch manbalari juda qadim bo‘lgan maqomlar «xalqlarning o‘ziga xos musiq a boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiq a janri sifatida yuzaga kelgan⁴». Bunda saroy madaniyati ham zarur obyektiv omil sifatida muhim o‘rin tutgan edi.

Shundayki, dastlabki davrlarda xalq orasidan yetishib chiqqan iste’dodli musiqachilar xon saroylariga (amaldorlarning xonadonlariga) musiqachi bo‘lib xizmat qilish uchun jalb etilganlar. Bino-barin, o‘tmishda musiq a san’ati bilan maxsus shug‘ullanib, shu tarzda hayot kechiruvchi musiqachi (ijodkor-xonanda, sozanda)lar

² Ladning turli ma’nolari bor. Bu yerda oktava diapazonidagi tovushlar majmuasi, 8 pog‘onali diatonik lad uyushmalari ko‘zda tutiladi.

³ Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent, 2006, 63–64-betlar.

⁴ Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent, 2006. 40-b.